

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 5



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
5-son
oktabr, 2025

October 2025
Volume 3
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika
universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya
universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве
РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве
РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет
туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при
Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и
бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета
Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории
Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового
администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт
проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

October 2025

Volume 3

Number 5

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish

Iskandarov Abdurasul Mirjalil o'g'li

Инновационные подходы и цифровизация в управлении страховыми исками

Искандаров Абдурасул Миржамил углы

Innovative approaches and digitalization in managing insurance claims

Iskandarov Abdurasul Mirjalil ugli

Received: September 7, 2025 Revised: September 10, 2025

■ Accepted: September 13, 2025 ■ Published Online: October 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Sug'urta da'volarini tezkor, shaffof va samarali amalga oshirishda sun'iy intellekt, blockchain, Big Data va onlayn platformalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda sug'urta da'volarini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va istiqbolli yo'nalishlar ko'rib chiqilgan.
- **Аннотация:** В статье анализируются инновационные подходы и процессы цифровизации в управлении страховыми выплатами. Освещается роль искусственного интеллекта, блокчейна, Big Data и онлайн-платформ в обеспечении оперативности, прозрачности и эффективности страховых выплат. Также рассматриваются предпринимаемые меры и перспективные направления цифровизации страховых выплат в Узбекистане.
- **Abstract:** This article analyzes innovative approaches and digitalization processes in the management of insurance claims. It highlights the importance of artificial intelligence, blockchain, Big Data, and online platforms in ensuring efficiency, transparency, and promptness of claim settlements. Furthermore, current measures and prospective directions of digitalizing insurance claims in Uzbekistan are examined.
- **Kalit so'zlar:** sug'urta da'vosi, innovatsiya, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, blockchain, Big Data.
- **Ключевые слова:** страховые выплаты, инновации, цифровизация, искусственный интеллект, блокчейн, Big Data.
- **Keywords:** insurance claims, innovation, digitalization, artificial intelligence, blockchain, Big Data.

KIRISH

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining izchil rivojlanishi moliya bozorining muhim bo'g'ini bo'lgan sug'urta tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sug'urta kompaniyalarining asosiy vazifalaridan biri – mijozlar manfaatlarini himoya qilish, da'volarni o'z vaqtida va sifatli qondirishdir. Shu bois sug'urta da'volarini boshqarish jarayonining samaradorligi kompaniyaga bo'lgan ishonchning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda sug'urta da'volarini boshqarishda an'anaviy mexanizmlar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish jarayonlarini keng joriy etish zarurati ortib bormoqda. Chunki da'volarni ko'rib chiqishning tezkorligi va shaffofligi nafaqat mijozlarning qoniqishini ta'minlaydi, balki sug'urta bozorining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt, blockchain, Big Data, onlayn platformalar va mobil ilovalar asosida shakllanayotgan yangi texnologik yechimlar sug'urta da'volarini boshqarishda samaradorlikni keskin oshiradi. O'zbekistonda ham oxirgi yillarda sug'urta kompaniyalari tomonidan raqamli xizmatlarni joriy etish, elektron polislar va onlayn da'vo topshirish tizimlari bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirishni chuqur tadqiq qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar ham O'zbekistonda, ham xorijiy mamlakatlarda alohida o'rganilmoqda. Avvalo, mahalliy olimlarning tadqiqotlariga to'xtaladigan bo'lsak, Sh.Sh. Ergashev (2021) o'z izlanishlarida sug'urta bozorining barqaror rivojlanishida innovatsion xizmatlar, jumladan, da'vojarayonlarini avtomatlashtirishning o'rni va ahamiyatini yoritgan. Shuningdek, M. Xudoyberdiyev (2022) sug'urta kompaniyalarida elektron hujjat aylanishi, raqamli platformalardan foydalanish va mijozlarga xizmat ko'rsatishda samaradorlikka erishish yo'llarini tahlil qilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-noyabrda PQ-4886-son qarorida sug'urta bozorini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda da'volarni boshqarishda shaffoflikni ta'minlash va yagona elektron platformani shakllantirish muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan.

Xorijiy adabiyotlarda ham ushbu masalalarga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, G. Rejda (2018) "Principles of Risk Management and Insurance" asarida sug'urta da'volarini boshqarishd risklarni baholash, da'vojarayonini tezkortashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini ilmiy asoslab bergan. Swiss Re Institute (2020) hisobotlarida esa sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining sug'urta sohasida qo'llanilishi, xususan, da'vo jarayonlarini optimallashtirishdagi roli ochib berilgan. **PwC Global InsurTech Report (2021)**da sug'urta kompaniyalarining blockchain va onlayn da'vo topshirish tizimlariga tobora ko'proq murojaat qilayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, J.D. Cummins va B. Venard (2020) tadqiqotlarida sug'urta da'volarini boshqarishda raqamlashtirish shaffoflikni ta'minlashi, firibgarlik xavfini kamaytirishi va kompaniyalarning mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshishiga xizmat qilishi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlarni hamda raqamlashtirish jarayonlarini o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta bozori iqtisodiyotning muhim segmentlaridan biri bo'lib, aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, korxonalar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xatarlarni qoplashda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, sug'urta da'volarini boshqarish jarayoni sug'urtaning samaradorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Chunki mijoz sug'urta xizmatini sotib olar ekan, uning ishonchi, birinchi navbatda, da'volarning qay darajada tezkor, shaffof va adolatli ko'rib chiqilishiga bog'liq. Shu sababli ushbu bo'limda sug'urta da'volarini boshqarishning mavjud holati, innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish jarayonlari yuzasidan tahlillar olib boriladi.

Sug'urta da'volarini boshqarishning hozirgi holati. So'nggi yillarda O'zbekistonda sug'urta bozori izchil rivojlanmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sug'urta mukofotlari hajmi sezilarli darajada oshgan, bu esa aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sug'urta da'volari bo'yicha

to'lovlar ham o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Ammo mavjud amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab da'vo jarayonlari ko'p vaqt talab etadi va ko'plab hujjatlarni taqdim etishni talab qiladi. Bu esa mijozlarda norozilik keltirib chiqaradi.

So'rovnoma natijalari shuni tasdiqlaydiki, mijozlarning katta qismi da'volar ko'rib chiqilishining murakkabligidan norozi. Masalan, o'tkazilgan kichik tadqiqotda mijozlarning qariyb 65 foizi sug'urta da'volarini olish jarayonini murakkab deb baholagan. Demak, an'anaviy usullar bozor talablariga to'liq javob bermayapti va innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Innovatsion yondashuvlarning ahamiyati. Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari faoliyatida turli innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ulardan eng muhimlari — sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), blockchain texnologiyalari hamda mobil ilovalar hisoblanadi.

- Sun'iy intellekt (AI) sug'urta da'volarini avtomatik tekshirish va baholashda qo'llanilmoqda. Masalan, xorijda avtomobil sug'urtasi bo'yicha da'volar tushganda, sun'iy intellekt surat va videotasvirlar orqali avtomobilning zararlanish darajasini aniqlab, taxminiy to'lov miqdorini hisoblab bera oladi. Bu inson omiliga bog'liqlikni kamaytiradi va tezkorlikni oshiradi.
- Blockchain texnologiyasi da'volar bo'yicha ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi. Bu texnologiya yordamida da'vo jarayonida kiritilgan barcha ma'lumotlar o'zgartirilmasdan saqlanadi va shu orqali soxta da'volarning oldi olinadi.
- Big Data va Data Mining texnologiyalari esa mijozlarning sug'urta tarixi, xatti-harakatlari, transport vositasi yoki sog'liq holati bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beradi. Natijada sug'urta kompaniyasi risklarni aniqroq baholay oladi va da'volarni tezroq hal qiladi.
- Mobil ilovalar esa mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Ular yordamida mijozlar da'volarini onlayn shaklda topshirishi, hujjatlarni ilova orqali yuklashi va jarayonni kuzatib borishi mumkin. Bu esa mijozlar ishonchini yanada kuchaytiradi.

Raqamlashtirishning samaradorligi. Raqamlashtirish jarayoni sug'urta kompaniyalari faoliyatida nafaqat tezlik va qulaylikni, balki shaffoflikni ham ta'minlaydi. Raqamli platformalar orqali da'volarni qayta ishlash va ko'rib chiqish jarayonlari inson omilidan ancha mustaqil bo'lib, xatoliklar sonini kamaytiradi. Masalan, rivojlangan davlatlarda oddiy avtomobil sug'urtasi da'vosi 15–20 daqiqa ichida ko'rib chiqilishi mumkin. O'zbekistonda esa ayrim sug'urta kompaniyalari, jumladan, "O'zbekinvest", bosqichma-bosqich raqamli tizimlarni joriy etmoqda. Hozirda jarayonlarning taxminan 40–45 foizi elektron shaklda amalga oshirilmoqda.

Bu ko'rsatkich yaxshi natija hisoblanadi, ammo to'liq raqamlashtirishga erishish uchun hali ko'plab bosqichlarni bosib o'tish kerak.

Xorijiy tajriba tahlili. Xalqaro tajribaga nazar tashlaganda, raqamlashtirish jarayoni ancha rivojlanganligini ko'rish mumkin. Masalan:

- AQSh va Yevropada sug'urta kompaniyalari da'volarni ko'rib chiqishda AI va blockchain texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Natijada jarayon real vaqt rejimida amalga oshiriladi.
- Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasida da'volarning 90 foizdan ortig'i mobil ilovalar orqali topshiriladi. Bu esa mijozlarga yuqori darajada qulaylik yaratadi.
- Rossiya va Qozog'istonda raqamlashtirish yo'lida qadamlar tashlanmoqda, biroq huquqiy bazaning yetarli emasligi ayrim cheklolarga sabab bo'lmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish sug'urta da'volarini boshqarishda sezilarli ijobiy natijalar beradi:
- Birinchidan, da'volarni ko'rib chiqish tezligi 2–3 barobar oshadi.
- Ikkinchidan, inson omiliga bog'liqlik kamayadi va shaffoflik ortadi.
- Uchinchidan, mijozlarning sug'urtaga bo'lgan ishonchi kuchayadi, bu esa sug'urta bozorining kengayishiga olib keladi.
- To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida sug'urta kompaniyalari operatsion xarajatlarni qisqartirishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirishni keng joriy etish nafaqat sug'urta kompaniyalarining samaradorligini oshiradi, balki butun sug'urta bozorini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Bu esa mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligiga va aholining ijtimoiy himoya darajasining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish jarayonlari sohani sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn, Big Data va mobil ilovalar sug'urta kompaniyalariga da'volarni tezkor, shaffof va samarali ko'rib chiqish imkonini bermoqda. Natijada, mijozlar bilan o'zaro ishonch mustahkamlanib, xizmat ko'rsatish sifati oshmoqda.

Innovatsion yondashuvlar yordamida:

- Sug'urta da'volarini avtomatlashtirish orqali inson

omiliga bog'liq xatoliklar kamaymoqda;

- Ma'lumotlar bazalarini integratsiyalashuv orqali firibgarlik holatlarini aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda;
- Onlayn platformalar orqali da'vo topshirish va monitoring qilish jarayoni qulay va tezkor bo'lib bormoqda;
- Mijozlarga individual xizmat ko'rsatish, tezkor to'lovlar va shaffof jarayonlarni ta'minlashga erishilmoqda.

Shu bilan birga, sug'urta tizimini raqamlashtirish davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bozor mexanizmlarini rivojlantirish va xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yechimlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki sug'urta kompaniyalari va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada yuqori bosqichga ko'taradi. Umuman olganda, sug'urta da'volarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamlashtirish kelajakda sohaning raqobatbardoshligini ta'minlash, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va sug'urta xizmatlari qamrovini kengaytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Iskandarov Abdurasul Mirjalil o'g'li, i.f.f.d, (Phd) Dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti / Искандаров Абдурасул Мирджалил оглы, (PhD), доцент Каршинского государственного технического университета / Iskandarov Abdurasul Mirjalil oglu, (PhD), Associate Professor, Karshi State Technical University
 ▶ abdurasuliskandarov007@gmail.com
 ■ ORCID: 0009-0007-4771-8174

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Karimov A. Sug'urta bozorini rivojlantirish va boshqaruv masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
- [2]. Jo'raev B. Moliyaviy menejment va sug'urta faoliyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-avgustdagi "Sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-son qarori.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi hisobotlari (2023–2024).
- [5]. Smith, R., & Walter, I. Global Insurance Industry: Trends and Innovations. – London: Routledge, 2020.
- [6]. OECD. Digital Transformation in Insurance Sector. – Paris: OECD Publishing, 2021.
- [7]. PwC. Insurance 2025: The Future of Digital Transformation in Claims Management. – Global Report, 2022.
- [8]. Swiss Re Institute. World Insurance Report 2023. – Zurich, 2023.
- [9]. Deloitte. Digital Claims Management and Insurance Innovation. – Deloitte Insights, 2022.
- [10]. Khan, M. & Hussain, A. Blockchain Applications in Insurance and Claims Management. – Journal of Risk and Financial Management, 2021.